

XORIJIY DAVLATLARDA IJTIMOIIY PROFILAKTIKA VA JAMOAT TARTIBIGA QARSHI JINOYATLARNI OLDINI OLIISH MASALALARI

у

*O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti
boshlig‘i, polkovnik, yuridik fanlari bo‘yicha*

avlatlardagi jinoyat bilan bog‘liq tushunchalari qonunchiligi va boshqa huquqiy

К

а **Аннотация.** В статье дается аналитический анализ опыта зарубежных стран в области социальной профилактики и предупреждения преступлений против общественного порядка. Также научно освещаются вопросы обеспечения безопасности населения. Также были выявлены нормы понятий преступления в законодательстве и иных нормативных правовых документах стран.

с **Ключевые слова:** население, соседство, социальная профилактика, преступление, правонарушение, закон, ответственность, намерение, общество, личность, уголовный кодекс, реформа, сообщество, общественность, телесные повреждения, ущерб, действие.

Jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarning oldini olishda xorijiy davlatlar tajribasini tahlil etib o‘rganadigan bo‘lsa, G‘arb davlatlarining jamota tartibiga qarshi jinoyatlarni oldini olish masalalarini o‘rganganimizda, ushbu mamlakatlarda politsiya xizmati turli muhim ahamiyatga egadir.

Turli xil professional tashkilotlar, ya’ni jamoat politsiya kuchlari, xususiy xavfsizlik idoralari, qurolli kuchlar, turli xil nazorat hamda tergov vakolatlariga ega hukumat idoralari tomonidan amalga oshirilsa-da, ushbu organlarning eng taniqlisi bu - jamoat joylarida piyoda va avtomobillarda patrullik qiladigan jamoat tartibini saqlash politsiya kuchlari hisoblanishini e’tirof etadilar. Ular fuqarolik hokimiyatining eng ko‘zga ko‘ringan vakillari bo‘lib, odatda politsiya tashkilotlari bilan bog‘liq modellarni namoyish etganlar.

Rus olimi A.N.Badmayev xorijda jamoat tartibini saqlash xizmatini tashkil qilish va kuchaytirishga katta e’tibor berilishi hamda qoidaga ko‘ra, u huquqni muhofaza qilish organlarida asosiy, mustaqil va juda ko‘p sonli tuzilma sifatida namoyon bo‘lishini ta’kidlagan. Bu esa jamoat tartibini saqlash xizmati faoliyatini boshqarish bo‘yicha xorijiy davlatlar to‘plagan tajribani milliy qonunchiligimiz va uni qo‘llash amaliyotiga samarali joriy etish uni o‘rganishda tizimli yondashuvni talab qiladi. Shu

sababli, ko‘zlangan maqsadga erishish uchun avvalombor xorijiy davlatlar jamoat tartibi va xavfsizligini ta‘minlash tizimlari va unda patrul-post xizmatining tutgan o‘rnini o‘rganish maqsadga muvofiqdir. Har bir davlatning jamoat tartibi va xavfsizligini ta‘minlash tizimi boshqa mamlakatlarnikidan muayyan xususiyati bilan ajralib turadi. Masalan, Amerika Qo‘shma Shtatlarida – ma‘muriy hududlarda jamoat tartibi va xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha dunyoda o‘ziga xos tizim va ilg‘or tajribaga ega bo‘lgan davlat.

AQSH tarixiy rivojlanishi mamlakatda politsiyaning uch bosqichli tizimini shakllantirdi. Bular: federal, individual va mahalliy darajadagi politsiya organlari bo‘lib, ularning orasida mahalliy darajadagi politsiya tizimining asosi, ya‘ni eng katta qismi (60 foizi)ni tashkil etadi hamda aholi bilan doimiy bevosita aloqada bo‘ladi. AQSH politsiya tizimini o‘rgangan huquqshunos olim D.D.Shalyagin – mazkur tizimning Yevropa davlatlari politsiya tizimlaridan asosiy farqini uning “pastdan tepaga” prinsipi asosida tashkil etilganida, deb aytib o‘tadigan bo‘lsa, P.N.Kurlovich bo‘ysunuvchi aloqaning yo‘qligi va o‘ziga xos murakkabligiga qaramay, uning barcha bo‘linmalari muayyan mas‘uliyat asosida faoliyat yurituvchi ixtisoslashgan bo‘limlar ekanligini ta‘kidlaydi. AQSH huquqni muhofaza qilish tizimi dinamik va texnologik jihatdan rivojlangan bo‘lib, fuqarolik jamiyatida demokratik huquq va erkinliklarni amalga oshirish doirasida jamoat tartibini saqlashning zamonaviy konsepsiyasini o‘zida aks etiradi. Mamlakatda jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta‘minlash, jinoyatchilikka qarshi kurash vazifalari asosan shtatlardagi munitsipal politsiya organlariga yuklatilgan.

Mamlakatning federal politsiya organlari esa shtatlar, shahar va okrug politsiyalarini zarur barcha ma‘lumotlar bilan ta‘minlab boradi hamda davlatda ushbu sohada juda samarali axborot tizimi qaror topgan. Mamlakat politsiya tizimida patrullik qilish politsiyaning ajralmas tarkibiy qismi va asosiy vazifasidir. Tadqiqotchilar AQSH politsiya patrul xizmatining vazifalari juda murakkab bo‘lishiga qaramay, unda xizmat qiluvchi xodimlar politsiyaning eng quyi bo‘g‘ini sifatida bevosita jamoatchilik bilan hamkorlikda ish olib borishi sababli boshqa politsiya xodimlariga nisbatan aholining muammolarini samarali hal etish imkoniga ega ekanligini ta‘kidlaydilar. Mamlakatda politsiya shaxsiy tarkibining yarmi patrullik xizmati bilan band bo‘lib, tizim uchun ajratilgan pul mablag‘larining 40 foizi ularga sarflanishi uning politsiya tizimida muhim o‘rin tutishini ko‘rsatadi. AQSH politsiya tizimidagi patrul xodimlarini xizmatga jalb etishda vaqt va hududning jo‘g‘rofiy belgilari hisobga olinadi hamda xizmatni tashkil etishda turli xil axborot-dasturiy tizimlaridan foydalaniladi.

Yevropa davlatlari orasida jamoat tartibi va xavfsizligini ta‘minlash, jinoyatchilikka qarshi kurash sohasida o‘ziga xos jihatga ega bo‘lgan tizim bu Fransiyada shakllangan. Fransiya politsiya tizimi Yevropadagi eng qadimgi

tizimlardan biridir. Fransiya politsiya tizimi yuqori darajada markazlashgan bo‘lib, milliy politsiya va jandarmeriyadan tarkib topgan. Mamlakatda davlat politsiya tartiboti o‘rnatilgan aholi punktlarida politsiya xizmat olib boradi, boshqa barcha hududlarda jamoat tartibi va xavfsizligini ta‘minlash uchun jandarmeriya javobgar hisoblanadi. Shuningdek, davlatda uchinchi politsiya kuchi – Davlat xavfsizlik politsiyasi ham mavjud bo‘lib, u ommaviy tadbirlar o‘tkazilganda va ommaviy tartibsizliklar yuzaga kelganda jamoat tartibini saqlashda ishtirok etuvchi milliy politsiya tarkibidagi harbiy qism hisoblanadi. Jandarmeriyaning eng asosiy vazifalaridan biri – jamoat tartibi va xavfsizligini ta‘minlash bo‘lib, bundan tashqari u odamlar va mulklarning xavfsizligini ta‘minlaydi, tezkor-qidiruv va jinoyatlarning oldini olish tadbirlarida ishtirok etadi. Qolaversa, hukumat, davlat idoralari va chet el elchixonalari binolarini qo‘riqlash vazifasi ham ularning zimmasiga yuklatilgan. Shu bilan birga, mamlakatda ko‘chma jandarmeriyalar faoliyati ham yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, ularning asosiy vazifasi jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta‘minlashdan iborat.

Fransiyada patrullik xizmati patrul bo‘linmalari tomonidan olib boriladi va ularning faoliyati asosan aholisi 10 mingdan oshiq bo‘lgan shaharlarda tashkil etiladi. Patrul bo‘linmalari o‘z faoliyatini turlicha, xususan avtopatrul, motopatrul, velopatrul, otliq patrul va piyoda patrul shaklida olib boradi. Politsiya patrul bo‘linmalari milliy politsiya xodimlarining 60 foizini tashkil etadi hamda xizmatni olib borish davomida shahar politsiyasiga bo‘ysunadi.

Mamlakatda patrul xizmati faoliyatini tashkil etilishining rivojlanishi va takomillashtirilib borishiga katta ahamiyat qaratiladi. Fransiya politsiya organlarining ommaviy tadbirlarni o‘tkazish davrida jamot tartibi va xavfsizligini ta‘minlashdagi rolini o‘rgangan tadqiqotchi T.I.Marayev mamlakatda barcha darajadagi ommaviy tadbirlarga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish jarayonida patrul-post xizmati boshqa organlarga nisbatan yetakchi o‘rin tutishini ta‘kidlaydi.

Yevropa davlatlari orasida jamoat tartibi va xavfsizligini ta‘minlash, jinoyatchilikka qarshi kurash sohasida yana bir o‘ziga xos tajribaga ega bo‘lgan Italiyada ham politsiya yuqori darajada markazlashgan tizim hisoblanadi. Italiyada hozirgi vaqtda politsiya funksiyasini bajaruvchi uchta huquqni muhofaza qiluvchi organlar mavjud. Ularning barchasi turli xil tashkiliy tuzilmalar va bo‘ysunuvlarga ega. Bular: 1852-yilda tashkil etilgan Davlat politsiyasi (Polizia di Stato), u jamoat xavfsizligi politsiyasi (Forze dipubblica sicurezza) deb ham ataladi; 1814-yilda Fransiya jandarmeriyasi modeli asosida tashkil etilgan Karabiniyer korpusi (Arma (Corpo) dei carabinieri); Moliya soqchilar korpusi (Corpo della Guardia) 1907-yilda Karabiniyeriga qo‘shimcha ravishda tashkil etilgan. Jamoat tartibi va xavfsizligi sohasidagi vazifalar o‘zaro bir-biriga bo‘ysunmaydigan bir nechta mustaqil, maxsus huquqiy maqomga ega bo‘lgan politsiya tashkilotlari tomonidan amalga

oshirilsada, Davlat politsiyasi ularning faoliyatini muvofiqlashtirib boradi¹. Shuningdek yuqoridagi tizimlardan tashqari Italiyada davlat politsiyasi tizimlariga kirmaydigan va 10 mingdan ortiq odam yashaydigan shaharlarda tashkil qilingan munitsipal politsiya (Corpo di polizia locale)lar ham mavjud bo‘lib, ular hokimiyatning byudjeti tomonidan moliyalashtiriladi va tegishli shahar munitsipalitetiga bo‘ysunadi.

Ushbu politsiya shaharda olib boriladigan turli operativ-tergov va boshqa tadbirlarda Davlat politsiyasining zaxirasi hisoblanadi. Uning asosiy vazifasi hududda jamoat tartibini saqlashda patrul xizmatini olib borish, shahar hokimining buyruqlarining bajarilishini nazorat qilish, bozorlarda tartibni saqlash, aholi punktlarini sanitariya holatini nazorat qilish va yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlashdan iborat. Ushbu patrul bo‘linmalari xizmatni piyoda, politsiyaga mo‘ljallangan avtoulovlar va mototsikllarda olib boradilar. Ba‘zi shaharlarda ular xizmat itlari hamda otlardan ham foydalanadilar. Yevropa davlatlari orasida jamoat tartibi va xavfsizligini ta‘minlash, jinoyatchilikka qarshi kurash sohasida yana bir yuqori darajada markazlashgan tizim Ispaniyada shakllangan.

Ispaniyada politsiya faoliyatini amalga oshiradigan ikkita idora mavjud bo‘lib, ularning birinchisi – Ispaniya Qirolligining Milliy politsiya korpusi, ya‘ni milliy politsiya (Cuerpo Nacional de Policia) hamda ikkinchisi – fuqarolik gvardiyasi (Guardia Civil) politsiyaning harbiylashtirilgan kuchlari hisoblanadi. Ikkala idora ham Ichki ishlar vazirligiga bo‘ysundiriladi va bosh direktor tomonidan boshqariladi. Ispaniya politsiya tizimi Konstitutsiyada mustahkamlangan ma‘muriy-hududiy bo‘linish tamoyillariga asoslanadi. Ular uchta darajadan iborat: markaziy (milliy politsiya), avtonom (hududiy politsiyalar) va mahalliy (munitsipal politsiya). Munitsipal politsiya tuzilmalari aholi soni 5000dan 20.000 gacha bo‘lgan hududlarda xizmat olib boradi va shahar hokimiyatiga bo‘ysunadi. Biroq barcha mahalliy politsiya bo‘linmalari jinoyatchilikka qarshi kurashish milliy dasturlarida ishtirok etadi va ularning faoliyati milliy politsiyaning tegishli boshqarmalari tomonidan muvofiqlashtirilib turiladi. Ushbu darajadagi idoralarning vazifalari turlicha bo‘lsada, umumiy maqsadi jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta‘minlashdan iboratdir. Mamlakatda jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta‘minlash ishlarini hal qilish milliy politsiya tarkibidagi jamoat tartibini saqlash markaziy boshqarmasiga yuklatilgan. Shuningdek, mazkur boshqarma xususiy xavfsizlik kompaniyalari va ularning xodimlari ustidan nazoratni amalga oshiradi, ommaviy tadbirlarda jamoat tartibini saqlash ishlarini tashkil etadi hamda asosiy bino va inshootlarning qo‘riqlanishini ta‘minlaydi.

Mahalliy hokimiyatlar organlari o‘zining politsiya kuchlariga ega bo‘lib, har bir shahar va qishloqlarda ularni tezkor boshqarish markazlari tashkil etilgan. Patrul xizmati tashkil etilgan shaharlarda ularning faoliyati mazkur markazlar orqali

1

boshqariladi. Shu bilan birga, Ispaniyaning hududiy va qirg‘oq suvlarini patrullik qilish fuqarolik gvardiyasining dengiz xizmati tomonidan amalga oshiriladi. Yaqin sharq davlatlari orasida jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlash, jinoyatchilikka qarshi kurash sohasida o‘ziga xos tizim Izroilda qaror topgan. Izroil Ichki ishlar vazirligi tizimida Jamoat xavfsizligi departamenti alohida o‘rin tutadi hamda jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlash faoliyati bevosita ushbu departament tomonidan amalga oshiriladi. Departament tarkibida patrullik xizmatini amalga oshiruvchi bir qator tarkibiy tuzilmalar, xususan sayohat patrul bo‘limi, hayvonlar (ot va itlar) bilan patrullik qilish bo‘limi, dengiz patruli bo‘limi, atrof-muhitni muhofaza qilish patrul bo‘limi mavjud. Shuningdek hududiy politsiya organlari tarkibida faoliyat olib boruvchi patrul xizmatlari tarkibida joylashgan hududning o‘ziga xos xususiyati bilan bog‘liq maxsus funksiyalarni bajaradigan alohida bo‘linmalar ham mavjud. Masalan, Quddusda ziyorat joylarida patrullik qilish va obyektlarni himoya qilish bilan shug‘ullanuvchi maxsus patrul bo‘linmasi faoliyat yuritadi. Mamlakatda patrullik xizmati 24 soat davomida xizmat olib boradigan va murojaat qilgan fuqarolar bilan muomalaga kirishadigan dastlabki tuzilma ekanligini inobatga olib, uning faoliyati politsiya faoliyatining samaradorligiga hamda jamoat tartibini saqlash, terrorizm va jinoyatchilikka qarshi kurash sohalariga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, Izroil davlatining hududiy politsiya kuchlarining aksariyatini patrullik xizmatlari tashkil etadi. Ko‘pgina hududiy politsiya tizimlarida patrullik xizmati umumiy xodimlarning 60 foizdan 75 foizigacha bo‘lgan qismini tashkil qilishi hamda Isroilning jami politsiyasining 70 foizini tashkil qilishi politsiya faoliyatining ushbu turi mamlakatda muhim rol o‘ynashidan dalolat beradi.

Osiyoda jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlash sohasida o‘ziga xos tizim hamda tajribaga ega davlat - Xitoy. Mamlakat politsiyasi – 1950-yilda tashkil etilgan Jamoat xavfsizligi vazirligi markazlashgan va markazlashmagan tizimlarga xos xususiyatlarni o‘ziga birlashtirgan gibril modelga ega. Turli xil politsiya xizmatlarini o‘z ichiga qamrab olgan va murakkab tuzilmaga ega bo‘lgan Xitoy xalq politsiyasi o‘z tarkibiga: jamoat xavfsizligi politsiyasi, kriminal politsiya, temir yo‘l politsiyasi, yo‘l harakatini nazorat qilish politsiyasi; qamoqxonalar politsiyasi, daryo va dengiz politsiyasi, o‘rmonlarni himoya qilish politsiyasi, bojxona politsiyasi, havo politsiyasini jamlagan.

Mamlakatda jamoat tartibini va xavfsizligini ta’minlash vazifasi vazirlikning jamoat xavfsizligi politsiyasi zimmasiga yuklatilgan Jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlashda joylarda tashkil etilgan Jamoat xavfsizligini ta’minlash statsionar postlari muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u bu borada mamlakatdagi boshqa politsiya idoralariga qaraganda kengroq vakolatlarga ega. Postlar jamiyat hayotining barcha jabhalarini tartibga solishda ishtirok etadi hamda mahalliy hokimiyat organlari va prokurorlar tomonidan nazorat qilinadi. Qishloq joylarida mazkur postlarda boshliq, uning

o‘rinbosari, kichik ma‘muriy xodimlar va kichik politsiya xodimlari xizmat olib boradi. Shahar joylari esa ularning tarkibida boshliq, uning o‘rinbosaridan tashqari ma‘muriy xodimlar va yettitadan o‘n sakkiztagacha bo‘lgan patrul xodimlari ish olib boradi.

Osiyoda jamoat tartibi va xavfsizligini ta‘minlash sohasida yana bir o‘ziga xos tizim hamda tajribaga ega davlat - Yaponiya. Yaponiyada jamoat tartibi va xavfsizligini ta‘minlash politsiyaning quyi bo‘g‘inlari – politsiya post va punktlari tomonidan amalga oshiriladi. Mamlakatda jamoatchilik bilan hamkorlikni kuchaytirish politsiya faoliyatini takomillashtirishga xizmat qilishini yaxshi tushungan Yaponiya hukumati aholi turar joylarida politsiya post (Koban) va punktlarining faoliyatini yo‘lga qo‘yishga alohida e‘tibor qaratgan. Yaponiyada politsiya post va punktlarida xizmat olib boruvchi patrul-post xizmati xodimlari o‘zlariga biriktirilgan hududlarda patrullik qilishda doimiy ravishda har bir oila, korxonalar, muassasa va tashkilot bilan ish olib boradilar. Xizmat davomida patrul-post xizmati xodimlari aholi o‘rtasida profilaktik suhbatlar o‘tkazib, ularni kerakli axborot bilan ta‘minlaydilar, shuningdek jamoatchilikning politsiya faoliyatiga doir fikrini o‘rganib boradilar. Mamlakatda jami hibsga olingan huquqbuzarlarning o‘rtacha 65 foizi patrul-post xizmati xodimlarining hissasiga to‘g‘ri kelishini ta‘kidlaydi.

Yuqoridagi ilmiy tahlillar ichki ishlar organlari jamoat tartibini saqlash xizmatining politsiya tizimi qaror topgan mamlakatlarda ham ma‘muriy hududlarda jamoat tartibi va xavfsizligini ta‘minlashda o‘ziga xos o‘ringa ega ekanligini yaqqol ko‘rsatdi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki: aholi turar joylarida jamoat tartibini saqlash va huquqbuzarliklar profilaktikasi bilan shug‘ullanuvchi tizimlarning ilg‘or xorij tajribasini mamlakatimiz ichki ishlar organlari, xususan patrul-post xizmati faoliyatini tashkil etish va boshqarish amaliyotiga: birinchidan, jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta‘minlashni zarur axborotlar bilan ta‘minlash, hududdagi kriminogen vaziyatdan doimiy xabardor bo‘lib borish, huquqbuzarlik faktlari haqida o‘z vaqtida xabardor bo‘lib borish va sodir bo‘lgan har qanday salbiy voqelikka o‘z vaqtida ta‘sir ko‘rsatish imkoniyatlarni beruvchi axborot texnologiyalarini joriy etish va moddiy texnikaviy bazani yaratish bo‘yicha chora-tadbirlarni belgilash hamda amalga oshirish; ikkinchidan, ichki ishlar organlari, shu jumladan patrul-post xizmati faoliyatining muhim yo‘nalishi hisoblangan aholiga ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatish funksiyasini kuchaytirish va shu orqali ichki ishlar organlarini aholiga yanada yaqinlashishi, ishonchiga kirish; uchinchidan, ichki ishlar organlari faoliyatini bevosita tartibga soluvchi qonunlar va maxsus qonunosti normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish, qabul qilish va amaliyotga joriy etish; to‘rtinchidan, ichki ishlar organlari xodimlari, shu jumladan patrul-post xizmati xodimlarining ijtimoiy-huquqiy himoyasini kuchaytirish yo‘nalishlarida joriy etish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Legislative History of the Convention on the Rights of the Child (1978-1989), United National Center of Human Rights, Human Rights. 1995, ser.1, Article.1. - P.11.
2. Қ.Р.Абдурасулова. Криминология. Дарслик. Масъул муҳаррир: ю.ф.д., проф. М.Ҳ.Рустамбоев. – Т.: ТДЮИ нашриёти, 2008. 305 бет. Б 19-20.
3. Авесто // Тарихий -адабий ёдгорлик / асқар Маҳкам таржимаси. - Т.: Шарқ,
4. Kriminologiya: Darslik / Z. S. Zaripov, A. S. Yakubov, G.A. Avanesovva boshq.; prof. Z. S. Zaripov tahriri ostida. – Т.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2008. – 420 b. B 44.
5. Kriminologiya. Maxsus qism: IIV oliy ta’lim muassasalari uchun darslik / Mualliflar jamoasi. – Т.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015. – B. 563.
6. Коллектив авторов. Криминология.- Алматы: Международный центр научных исследований и правовой экспертизы Р.К. 2008.-С. 379.
7. ¹